



## Social Characteristics Of Speech Of Characters In Dramatic Works

**Ismailov Jahangir Jaloliddinovich**

+998 93 600 57 82

Uzbekistan State University of Physical Education and Sports

Teacher of the Uzbek language and literature department

[Ismailovzahongir74@gmail.com](mailto:Ismailovzahongir74@gmail.com)

**Abstract:** It is known that not every dialogue can create a dramatic work, but a dramatic dialogue is recognized for a play, which embodies the living image of characters, and can create action, not just any action, but a life-dramatic action consisting of a world of conflicts.

**Key words:** Dramatic, play, monos composition, monologic discourse, worldview, Woman's speech, folk oral creativity, emotionality of thought.

## Dramatik Asarlardagi Qahramonlar Nutqining Sosial Xoslanishi

**Ismailov Jahongir Jaloliddinovich**

+998 93 600 57 82

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi o'qituvchisi

[Ismailovzahongir74@gmail.com](mailto:Ismailovzahongir74@gmail.com)

**Annotasiya:** Ma'lumki, har qanday dialog ham dramatik asarni vujudga keltira olmaydi, balki pyesa uchun xarakterlarning jonli qiyofasini gavdalantiruvchi, harakatni, shunda ham har qanday harakatni emas, balki to'qnashuvlar



olamidan iborat hayotiy dramatik harakatni vujudga keltira oladigan dramatik dialog tan olinadi.

**Kalit soʻzlar:** Dramatik, pyesa, monos kompozision, monologik diskurs, dunyoqarash, Xotin nutqi, xalq ogʻzaki ijodi, fikrning emosionalligi.

Dramatik asarlarda xarakterni personaj nutqisiz tasavvur qilish qiyin. Bunday asarlarda nutq personajlar xarakterini koʻrsatib qolmay, harakatiga asos boʻladi, uning jonliligini taʼminlaydi.

Dramatik asarlarda qahramon qiyofasi, xakteri proza yoki poeziyadagidek muallif hikoyasi, xarakteristikasi, portret tasviri orqali ochilmay, balki qahramonning boshqalar bilan munosabati, oʻz nutqi hamda boshqa personajlarning u haqdagi soʻzlari, fikrlari orqali yoritiladi; boshqacha aytganda, pyesada dialog asarning zanjiri, xakteri, harakatini yuzaga chiqarish vositasi. Dialogsiz dramatik asarni tasavvur qilish mumkin emas. Chunki, “Pyesada ishtirok etuvchi shaxslar faqat ana shu shaxslarning nutqlari vositasida, yaʼni tasvir tili bilan emas, sof jonli til vositasida yaratiladi”<sup>1</sup>.

Shuningdek, har qanday dialog ham dramatik asarni vujudga keltira olmaydi, balki pyesa uchun xakterlarning jonli qiyofasini gavdalantiruvchi, harakatni, shunda ham har qanday harakatni emas, balki toʻqnashuvlar olamidan iborat hayotiy dramatik harakatni vujudga keltira oladigan dramatik dialog tan olinadi. Shunday dialog asosiga qurilgan asargina yetuk dramatik asar darajasiga koʻtariladi.

Monolog – grekcha *monos* – bir, yakka, *logos* – soʻz, nutq, yaʼni yakka nutq degan maʼnoni anglatadi. Badiiy asardagi personajning oʻz muddaosini, biror muhim masalaga munosabatini, ichki niyatini ifodalash maqsadida personajga, kitobxonga yoki tomoshobinga, baʼzan oʻziga qarata soʻzlagan nutqiga monolog deyiladi. Monologning ikki turi – ichki va sirtqi koʻrinishda boʻlishi adabiyotshunoslikda tan olingan haqiqat<sup>2</sup>. Shu bilan birga, baʼzi tadqiqotlarda

<sup>1</sup> Горкий М. Адабиёт хақида. ЎзССР Давлат бадий адабиёт нашриёти. – Т.: 1962 йил, 192-бет.

<sup>2</sup> Қўшжонов М. Маъно ва мезон. – Т.: Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 165-166; Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1986. – Б. 220 – 221; Ҳотмов Н., Саримсоқов Б.



monologni yana ayrim turlarga ajratishga intilish hollari ham mavjud. Masalan, adabiyotshunos T. Boboyev monologning ikki turini tan olish bilan birga, «Monologlar g'oyaviy mazmuniga ko'ra monolog-xotira, monolog-muhokama, monolog-orzu kabi turlarga bo'linadi»<sup>3</sup>, - deb yozadi. Adabiyotshunos H. Abdusamatov esa, «Ichki monologlar murakkab xarakterga ega bo'lib, turli xillarga bo'linadi. Monolog – qahr-g'azab, monolog – shodlik, monolog – xotira, monolog muhokama, monolog – qasos, o'ch, monolog – lirika, monolog – kulgi, monolog – fojia kabi xillari mavjud»<sup>4</sup>, - deb ko'rsatadi.

Bizning nazarimizda, monologlarni asosiy ikki ko'rinishidan tashqari turlarga bo'lib o'tirishga hojat yo'q. Chunki bunday turlarga ajratish monologlarning keng qamrovli vazifasidan chetga tortishga sabab bo'ladi. Monolog xarakterning o'z ichki hissiyotlarini, psixologiyasini namoyon etishida bir vosita rolini o'ynash bilan birga, uning asarda tasvir etilayotgan voqelikka, boshqa personajlarga bo'lgan munosabatiga ham oydinlik kiritadi va harakat oqimining tezlashishida ko'mak beradi. Monologning vazifasi asardagi zaruriy o'rniga qarab belgilanadi va ro'yobga chiqadi.

Sir emaski, badiiy asarlar tilining ta'sirlanligi noverbal vositalarning ishtiroki bilan aloqadordir. Shu mavzuda monografik tarzda tadqiqot olib borgan M. Saidxonov noverbal vositalarning aloqa-aralashuvda ishlatilishi tilning rivojlanish jarayonida o'ziga xos omil ekanligini qayd etadi. Garchi noverbal vositalar fikr ifodalashda qatnashsa-da, ular til strukturasi kirmaydi, chunki aloqa-aralashuvning noverbal vositalari tildan tashqaridagi, unga yondosh holat bo'lib til sistemasi esa ichki faktorlar asosida rivojlanadi.<sup>5</sup> Til sistemasi hamisha har qanday fikr mazmunini, his-hayajonlarni va boshqa ichki tuyg'ularni ifodalash qudratiga ega<sup>6</sup>. Lekin, shunga qaramay, aloqa-aralashuvda inson beixtiyor

Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – Б. 201; Шукуров Н., ва бошқалар. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1984. – Б. 124.

<sup>3</sup> Бобоев Т.. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б. 175.

<sup>4</sup> Абдусаматов Х. Драма назарияси. – Т.: Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б. 221-222.

<sup>5</sup> Саидхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши. Фил., фан., ном., дисс., – Тошкент. 1993. 94-бет.

<sup>6</sup> Колшанский В.Г. Паралингвистика. – Москва: Наука, 1974, 7-бет.



noverbal vositalardan foydalanadi. Chunki nutq jarayoni, dialogik vaziyat va so'zlashuvchilarning psixologik holati fikr ifodalashda imo-ishoradan, tovush o'zgarishlaridan, badan harakatlaridan foydalanishni taqozo etadi.

O'z navbatida, "Temir xotin" dramasida Qo'chqor, Olimtoy, Alomat, Qumri, "Kelinlar qo'zg'oloni" dramasida Farmon, Nigora, Sotti, Usta Boqi, Bashorat, Mahkam va boshqa xarakterlarning kitobxon tomoshabin ko'z oldida o'z davrining jonli guvohi sifatida namayon bo'lishida asardagi personajlar nutqi – dialog va monologlarning o'рни katta. Odatda dialoglarda qahramonlar nutqining sosiopragmatik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Tahlilga tortilgan dramalarda nutqning sosial xoslanishi er-xotin, qaynona-kelin, ona-o'g'il munosabatlari, shuningdek, kasbiy, etnik, moddiy holati(boy, kambag'al)ga ko'ra amalga oshishini kuzatish mumkin.

Quyidagi dialogga diqqat qaratadigan bo'lsak:

**QUMRI** (*arazli*). *Nima qilasiz?*

**QO'CHQOR.** *Qo'yvoraman!*

**QUMRI** (*xo'rligi kelib*). *Nima?..*

**QO'CHQOR.** *Pattangni qo'lingga tutqazaman!*

**QUMRI** (*Birpas eriga ta'no aralash qarab turadi-da, dordagi kiyim-kechaklarini yig'ishtira boshlaydi*). *Hozir eridan patta so'rab o'tiradigan zamonmas.*

**QO'CHQOR.** *Iye! Bepatta ketaveraman, de? (Javob ololmagach.) Hech bo'lmasa, bitta qo'limni bo'shatib qo'y, nomard!*

**QUMRI.** *Bitta qo'lingizni bo'shatganim bilan foydasi yo'q. (Sh.Boshbekov. "Temir xotin" dramasi)*

O'zbek dramalariga xos bo'lgan xarakterli xususiyatlardan biri oilaviy munosabatlarning nutq orqali yaqqol ochib berilishidir. Shuningdek, ushbu ikki dramada nutqning markaziy harakat liniyasida oilaviy munosabatlar bilan bog'liqlik turadi. Shu boisdan nutqning pragmatik dasturi ham ayni shu vaziyatga muvofiq tuzilgan. Yuqorida keltirilgan misolda er-xotin munosabatlariga



taalluqlilikni alohida ifodalab beruvchi “qo‘yvoraman”, “Pattangni qo‘lingga tutqazaman” so‘zlar dialogning semantik mundariyasi, mazmun yo‘nalishi va mavzu xarakterini belgilab beradi. Nutqning ana shu pragmatik dastur asosida kechishi qahramonlarning mentalitetiga ham muvofiq ekanligini ko‘rsatadi. Dialogning keying qismiga diqqat qilamiz:

**QO‘CHQOR.** *Nega bo‘lmas ekan, qashinib olaman.*

**QUMRI.** *Qayeringiz qichishyapti, ayting, o‘zim qashib qo‘yaman.*

**QO‘CHQOR** *(bu gapni kutmagan edi, dovdirab qoladi). Sening bo‘ying yetmaydi...* (Sh.Boshbekov. “Temir xotin” dramasi)

Qumri obrazi tomonidan aytilgan gap pragmatik dasturdan tashqarida. Boisi o‘zbek madaniyatida nutqda adresatga murojaatning bevosita xoslanishi yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘ziga nisbatan bunday munosabatni kutmagan Qo‘chqor (er) obrazida esa qanday javob qaytarishga ikkilanish paydo bo‘ladi va dovdirab qoladi.

“Eposdagi xotin-qizlar erkaklar bilan teng vaziyatda turadi, faqat tinch, tirikchilik emas, balki urushda ham ulardan qolishmaydi. Bu xislat O‘rta Osiyo eposining juda xarakterli xislati bo‘lib, uni boshqa ko‘p xalqlarning eposidan yuksak o‘ringa ko‘taradi, biroq erkaklarga hurmat ular nutqining eng asosiy xarakterli jihatidir»<sup>7</sup>.

“Umuman olganda dramatik asarlarda nutqning xoslanishida ikki asosiy jihat: kommunikant va nutqiy aktga e‘tibor qaratiladi”.<sup>8</sup> Kommunikant nutqi, ijtimoiy kelib chiqishi, jinsiga, yoshiga, ma‘lumotiga, oldingi hayot tarixiga va boshqalarga nisbatan xoslanadi. Bu omillar orqali shaxs shaxs sifatida jamiyat ichida joylashadi. Keyin odamlar muloqot qilish uchun foydalanadigan resurslarni aniqlash kerak. Norman Ferklo ularni “fon bilimlari” deb ataydi.<sup>9</sup> Asosiy diqqat qaratish lozim bo‘lgan jihat esa mavjud nutqiy vaziyat sanaladi.

<sup>7</sup> Толстов С.П. Ўзбекистоннинг қадимги маданияти. – Т., 1944. 11-бет.

<sup>8</sup> Mey J.L. Pragmatics: an introduction 2 nd ed. – Oxford: Blackwell. 2001.

<sup>9</sup> Fairclough N. Language and power. – London: Longman. 1989.



Diskurs ishtirokchilarining har biriga ma'lum bo'lgan umumiy holat. Kommunikantlar ushbu vaziyatni beixtiyor baholab boradi va bu baholashlar hosilasi sosiopragmatik jihatdan xoslangan nutq sanaladi. Buni shunday izohlash mumkinki, tinglovchi ham, so'zlovchi ham mavjud vaziyat haqida oldindan ma'lumotga ega bo'ladi va mavjud ma'lum ma'lumotlarga asoslanib, masalani hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.<sup>10</sup>

Shunga ko'ra, tahlilga tortilgan ikki o'zbek dramalarida ovsinlar, qaynona-kelin, er-xotin, ona-o'g'il dialoglari alohida xarakterli xususiyatlarni namoyon etsa, ingliz dramalarida er-xotin, oshiq va ma'shuq, ma'shuqa, do'stlar dialoglari pragmatik va sosiopragmatik jihatdan o'ziga xoslikni namoyish etadi. O'zbek dramalarida dialog yoki monologlarning sosiopragmatik xususiyatlari va ularning xoslanishini o'rganish jarayonida quyidagi umumlashmalar yuzaga keldi:

#### **Er-xotin nutqi:**

Xotin nutqi, asosan, itoatkorlik, nutqiy vaziyat talabi bilan alamzadalik, jahli mazmunida bo'ladi.

**Itoatkorlik: QUMRI** (*achinib, sidqidildan*). *Yecholmayman, dadasi, mendan xafa bo'lmang. Tushlikdan keyin qishloq oqsoqollari kelamiz, bir yaxshilab gaplashib qo'yaylik, bo'lmasa dumini ushatmaydi, deb ketishdi...*

**Kinoya: QO'CHQOR**. *Ho-o, qarorniyam bilarkanlarmi! O'zi sakkizinchi sinfda qolib ketgan! Chalasavod! Rasmi yo'q ekan, deb gazit o'qimaydi!*

**QUMRI**. *O'zingiz ham o'qimaysiz-ku?*

**ARAZ**: *Yaxshilikcha bo'shat! (Biroz kutib.) Iye, bir balo bo'lganmi bunga?.. Oxirgi marta aytyapman, agar hozir yugurib kelib, qo'limni bo'shatmasang...*

*Ichkaridan Qumri chiqadi. U o'ttiz-o'ttiz beshlarda, lekin yoshiga nisbatan ancha katta ko'rinadi.*

<sup>10</sup> Verschueren J. Understanding pragmatics. (Understanding language series.) – London: Arnold; New York: Oxford University Press, 1999. Pp. xiv, 295.



**QUMRI** (*arazli*). *Nima qilasiz?*

**QUMRI** (*Birpas eriga taъna aralash qarab turadi-da, dordagi kiyim-kechaklarini yig'ishtira boshlaydi*). *Hozir eridan patta so'rab o'tiradigan zamonmas.* (Sh.Boshbekov. "Temir xotin" dramasi)

R.Lakoff tilda ayollar va erkaklarning uslublari farqlanishini ta'kidlaydi. Erkak tili yanada qat'iy, yetuk va erkaklar ochiq gapirishni yaxshi ko'radilar. Bunga qarama-qarshi ravishda, ayollar ishlatadigan so'z qat'iy emas, shuningdek, yashirin mazmunda (so'zlarni majoziy ma'noda ishlatish uchun) va ko'pincha yumshoq va muloyim so'zlarni yoki imo-ishoralarni ishlatadi. Bundan tashqari, Robin Lakoff, shuningdek, agar ayol biror narsaga ishonchi komil bo'lsa, u o'zini ayblab, o'ziga ishonchi yo'qligini ko'rsatishini aytadi.<sup>11</sup>

Yuqorida keltirilgan tahlillardan ham ko'rish mumkinki, ayollar nutqi qochirimlar, kinoya bilan ifodalanishi asosiy xarakterli jihatlardan sanaladi. Dialoglar esa qahramonlarning muloqotga kirishuvi, muloqot vositalari va mavzu yoki mazmuniy dasturini tadrijiy ifodalab beruvchi vosita sanaladi. Monologlar esa, qahramonning o'z-o'zini taftish qilishi, vaziyatni baholashga urinishi, g'azabini jilovlashi bilan bog'liq holatlarda beixtiyor yuzaga keladi. Shu ma'noda monologlarni qahramon ruhiy holatining pragmatik, nutqiy ifodasi deyish mumkin:

**Ovsinlar:**

**BO'STON.** *Voy o'lay. (Shoshib chiqib ketarkan.) Shu desangiz...*

**LUTFI.** *Butun fikru-xayolim Nigoraxonda. Bechoraga yomon bo'ldi. Oyim endi unga kun bermaydilar.*

**MEHRI.** *Bitta yo'li, A, B, V, G, D vitaminlaridan yeb turishi kerak, bo'lmasa holdan toyib qoladi.*

<sup>11</sup> Lakoff, R. Language and woman's place. – New York: Cambridge. – 1975.



**MUHAYYO.** *Ovsiningiz xiylacha bor. Ayamga osonlikcha jilovini tutqazib qo'ymaydi.*

**LUTFI.** *Shundoq deysizu, o'zimdanda qiyos. Kelganimda tipratikonga o'xshab hurpayib, duch kelganga ignamni sanchirdim.*

**BASHORAT.** *Esingizdami?*

**LUTFI.** *Bo'lmasam-chi. Oyimning qo'lga tushdimu yelkamni kim silasa, mushukdek mudraydigan bo'lib qoldim.*

**MUHAYYO.** *Oyim tipratikonnini teskarisiga silab uxlatadiganlardan.*

**BASHORAT.** *Zo'rdan zo'r chiqsa, zo'r bo'ynini qisar.*

**LUTFI.** *Samolyotni ayting, o'rgilay, samolyotni. Osmoni falakni guldiratib kelayotgan samolyot uyimiz tepasiga kelganda pildirpis qilib, ovozini chiqazmay o'tadi.*

**MUHAYYO.** *Mulla akangiz-chi, bedanaga ishqiboz. Shundoq sayroqi bedanalarni topib keladilar. Sho'rliklar oyimni ko'rishi bilan soqov bo'ladi qoladi.*

**LUTFI.** *Qo'shnimizning xo'rozi.*

**MEHRI.** *Xo'roz! Zo'r xo'roz-da.*

**LUTFI.** *O'lgur ham anchadan beri qichqirmay qo'ydi.*

**MUHAYYO.** *Oyimdanda qo'rqadi. Qo'rqadi, o'rgilay.*

**SOTTI.** *Nonushta tayyor! (S.Ahmad, "Kelinlar qo'zg'oloni" dramasi)*

Dramatik asarlarda dialog va monolog ko'rinishidagi nutqning xarakterli xususiyatlaridan biri nutqning tadrijiy davom etishi va kommunikantlar o'rtasida almashib turishidir.

Quyida keltirilgan ko'chirma tahlilida navbatni qabul qilish tizimidagi o'zgaruvchilar aniqlanadi va ular yaratgan dramatik vaziyatni o'quvchining





tushunishiga qanday hissa qo'shganligi uchun foydalanishning o'ziga xos naqshlari va tanlovlari talqin qilinadi. Bu muqarrar ravishda qisman tahlildir chunki navbat ketma-ketligi, pragmatika va jins kabi boshqa o'lchovlar hisobga olinmaydi. Qiziqish navbatni qabul qilish tizimidan foydalanish va bu ko'chirmani tushunishga hissa qo'shishi uchun ishlatiladigan navbatni boshqarish strategiyasidir. Jon Osbornning "Look Back in Anger" kitobidan olingan to'rtta dramatik qahramon bor - Jimmi va Alison er-xotin bolib, ularning nikohi muammoli. Kliff va Jimmi doimiy do'stlar, ammo Kliff ham Alisonga yaqin va uning ishonchli odami. Xelena, aktrisa va Alisonning uzoq do'sti, er-xotingga tashrif buyuradi. Ma'lumot uchun burilishlar raqamlangan.

(1) **JIMMY:** *Oh, yes, and I know what I meant to tell you—I wrote a poem while I was at the market yesterday. If you're interested, which you obviously are. [To Helena] It should appeal to you, in particular. It's soaked in the theology of Dante, with a good slosh of Eliot as well. It starts off "There are no dry cleaners in Cambodia!"*

(2) **CLIFF:** *What do you call it?*

(3) **JIMMY:** *"The Cess Pool!" Myself being a stone dropped in it, you see—*

(4) **CLIFF:** *You should be dropped in it, all right.*

(5) **HELENA:** *[to Jimmy]. Why do you try so hard to be unpleasant? [He turns very deliberately, delighted that she should rise to the bait so soon— he's scarcely in his stride yet.]*

(6) **JIMMY:** *What's that?*

(7) **HELENA:** *Do you have to be so offensive?*

(8) **JIMMY:** *You mean now? You think I'm being offensive? You underestimate me. [Turning to Alison.] Doesn't she?*

(9) **HELENA:** *I think you're a very tiresome young man. [A slight pause as his delight catches up with him. He roars with laughter.]*



(10) **JIMMY:** *Oh dear! oh dear! My wife's friends! Pass Lady Bracknell the cucumber sandwiches, will you? [He returns to his meal, but his curiosity about Alison's preparations at the mirror won't be denied any longer. He turns round casually, and speaks to her.] Going out?*

(11) **ALISON:** *That's right.*

(12) **JIMMY:** *On a Sunday evening in this town? Where on earth are you going?*

(13) **ALISON:** *[rising]. I'm going out with Helena.*

(14) **JIMMY:** *That's not a direction—that's an affliction. [She crosses to the table, and sits down C. He leans forward, and addresses her again.] I didn't ask you what was the matter with you. I asked you where you were going.*

(15) **HELENA:** *She's going to church. [He has been prepared for some plot, but he is as genuinely surprised by this as Cliff was a few minutes earlier.]*

(16) **JIMMY:** *You're doing what? [Silence.] Have you gone out of your mind, or something? [To Helena] You're determined to win her aren't you? So it's come to this now! How feeble can you get? [His rage mounting within.] When I think of what I did, what I endured, to get you out—*

(17) **ALISON:** *[recognising an onslaught on the way, starts to panic]. Oh yes, we all know what you did for me! You rescued me from the wicked clutches of my family, and all my friends! I'd still be rotting away at home, if you hadn't ridden up on your charger and carried me off! (J. Osborne "Look Back in Anger")*

Oliver Saks va boshqalar tomonidan taklif qilingan navbatni qabul qilish tizimi navbatni taqsimlash va navbatni o'zgartirishni boshlash variantlaridan biridir.<sup>12</sup> Joriy ma'ruzachi navbatdagini tanlashi mumkin, kimgadir navbat huquqlari o'tadi; yoki keyingi ma'ruzachi o'zini-o'zi tanlashi mumkin yoki navbat tugashi

<sup>12</sup> Sacks, Harvey, Emanuel A. Schegloff, and Gail Jefferson. 1978. "A simplest systematics for the organization of turn taking for conversation." In Schenkein 1978.



mumkin; asl ma'ruzachi "to'xtash" ni o'z navbatiga "pauza" sifatida qo'shishi va navbatni davom ettirishi yoki birini tanlashi mumkin.

**References:**

1. Горкий М. Адабиёт ҳақида. ЎзССР Давлат бадий адабиёт нашриёти. – Т.: 1962 йил, 192-бет.
2. Қўшжонов М. Маъно ва мезон. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 165-166; Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1986. – Б. 220 – 221; Ҳотмов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунслик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – Б. 201; Шукуров Н., ва бошқалар. Адабиётшунсликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1984. – Б. 124.
3. Бобоев Т.. Адабиётшунслик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б. 175.
4. Абдусаматов Ҳ. Драма назарияси. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б. 221-222.